

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....	7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....	18
4. Pulat Fozilov INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....	23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....	28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYASI TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....	45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MISOLIDA).....	54
---	----

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI: 2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....	59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....	64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGI MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGI XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna-
Urganch davlat universiteti
Tarix kafedrası o'qituvchisi
Elektron pochta:mgulnoz@bk.ru

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362984>

ANNOTATSIYA

Maqolada Janubiy Orolbo'yi hududining geografik xususiyati, aholisining joylashishi, xo'jalik madaniy tiplari rivojlanish bosqichlarini yoritish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Quyi Amudaryo, Ustyurt, okrug, del'ta, Sariqamish, Orol dengizi, Xorazm, Kaltaminor, Oqtaylik, Aydabol, S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov, P.Baratov, V.V.Sinzerling, E.B.Bijanov, M.A.Itina, I.Jabborov.

Матназарова Гульноз Бахтияровна-

Преподаватель кафедры истории
Ургенчского государственного университета

ПАЛЕОГЕОГРАФИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ НИЖНЕАМУДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА В ЭПОХУ НЕОЛИТА, ЭТАПЫ ЕГО ОСВОЕНИЯ

АННОТОЦИЯ

В статье анализируются этапы освоения и палеогеографические состояния и на этапе развития территории Низовья Приаралья.

Ключевые слова: Низовья Амударьи, Устюрт, дельта, Сарыкамыш, Аральское море, Хорезм, Калтаминор, Октайлик, Айдабол, Толстов С.П., Виноградов А.В., Баратов П., Цинзерлинг В.В., Бижанов Е.Б., Итина М.А., Жаббаров И.

Matnazarova Gulnoz Bakhtiyorovna-

Lecturer at the Department of History,
Urgench State University

THE PALEOGEOGRAPHICAL CONDITION OF THE LOWER AMU DARYA REGION DURING THE NEOLITHIC PERIOD AND THE STAGES OF ITS SETTLEMENT

ANNOTATION

The article aims to highlight the geographical features of the Southern Aral Sea region, the settlement patterns of the population, and the development stages of economic-cultural types.

Keywords: Lower Amu Darya, Ustyurt, district, delta, Sarykamysh, Aral Sea, Khorezm, Kaltaminor, Oqtaylik, Aydabol, S.P. Tolstov, A.V. Vinogradov, P. Baratov, V.V. Sinzerling, E.B. Bijanov, M.A. Itina, I. Jabborov.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Xorazm vohasi geografik o'rni geografik jarayonlar natijalariga qaraganda Qo'shni hududlar bilan yaxlit bo'lsa ham, geografik, geomorfologik va gidrologik xususiyatlari jihatlar bilan farqlanish holati moddiy va ma'naviy madaniyatda o'z mazmunini topgan. Mazkur makonda O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan o'ziga xos xususiyatlari ta'sirida Qoraqum va Qizilqum sochma qum parchalari hamda Amudaryo inijliklariga ajdodlarimiz bardosh berib, neolit davriga olib borgan o'zlashtirish siyosatini keyingi tarixiy davrda taraqqiy etishini tarixiy jihatdan yoritish maqsad qilingan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Geografik adabiyatlarda qayd qilinishicha Xorazm vohasi bundan 25-10 million yillarda Qizilqum – Orol dengizi oralig'i, Qoraqum – Ustyurt hududlari tekislik bo'lgan.

[1-B 283] Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugi Qoraqum cho'li bilan Orol dengizi orasida joylashib o'z ichiga Amudaryoning qadimiy va hozirgi zamon del'tasini oladi. Okrugni g'arbdan Ustyurt, janubdan Unguzorti Qoraqum, sharqdan Qizilqum va Sultonuvays tog'lari, shimoldan esa Orol dengizi o'rab turadi. Quyi Amudaryoning ushbu chegara orasidagi maydoni 46 ming kv.km ni tashkil etadi. [2, B-154]

Quyi Amudaryo okrugi janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomonga cho'zilgan bo'lib, shu tomonga kengayib, pasayib boradi. Okrug janubda Tuyamo'yin tangligidan boshlanib, Orol dengizigacha davom etadi. Shu masofada uning uzunligi 400 km bo'lib, kengligi bir xil emas. Eng janubiy qismida Tuyamo'yin tangligida okrugning kengligi taxminan 10-12 km bo'lib, shu yerdan Amudaryoning qadimiy del'tasi boshlanadi va shimoli-g'arbga qarab kengayib, Xorazm-Toshxovuz tekisligini hosil qiladi hamda kengligi 75-80 km ga yetadi. Amudaryoning qadimiy del'tasi Taxtatosh tangligigacha davom etadi va torayadi, so'ngra shimolga tomon yana kengayib qadimiy del'ta tugab, Amudaryoning hozirgi zamon del'tasi boshlanadi hamda Orol dengizigacha davom etadi. Shu yo'nalish bo'yicha del'ta pasayadi va kengayib, ba'zi yerlarda 140-150 km ga yetadi. [3, B-155]

Quyi Amudaryo okrugi antropogen davrning allyuvial-del'ta yotqiziqlarining asta-sekin to'planishi va uning del'tasining Orol dengizi tomonga o'sishi tufayli vujudga kelgan. Binobarin, Quyi Amudaryoda quruqlikning vujudga kelish jarayoni janubi-sharqdan, ya'ni Tuyamo'yin tangligidan shimoli-g'arb, shimol tomonga qarab davom etgan. Amudaryoning hozirgi zamon del'tasini Orol dengiziga tutashgan mintaqasida "eng yosh" del'ta bo'lib, uning maydoni Orol dengizi suv sathining pasayishi hisobiga muttasil kengayib bormoqda. So'nggi yillar ichida Orol dengizi suv sathining 15,5 metr pasayishi tufayli uning suvi ba'zi joylarida 100 km gacha chekinib, quruqlikka aylanib qoldi. [4, B-25]

Quyi Amudaryo okrugi hududidagi eng muhim qadimiy o'zanlari uning o'ng qirg'og'idagilari – Orol tomon yo'nalgan Shortonbay, Kreyt-Uzak, Qora-Uzak, Itkra Uzak, Kindiksay, Qorako'lsay va boshqalardir. Chap qirg'oqdan boshlanuvchi va Sariqamish botig'i tomon yo'nalgan eng qadimiy o'zani Ko'xnadaryo, Daudan hisoblanadi. [5, C-103-106] Ma'lumotlarga qaraganda XVI asrgacha Amudaryo suvining bir qismi vaqti-vaqti bilan (suvi ko'p bo'lganda) Ko'xnadaryo orqali Sariqamish ko'liga quyilib turgan. V.V.Sinzerlingning ma'lumotiga ko'ra, Amudaryo suv tarkibida loyqa qatlami miqdori 0.77% - 0.66% bo'lgan.[6-C-142]

Quyi Amudaryo rel'efining tabiiy holatini o'zgartirishida insonning xo'jalik faoliyati ham muhim rel'ef hosil qiluvchi omilga aylangan. Chunki inson o'zining ko'p asrlik xo'jalik faoliyatida Quyi Amudaryo yerlarini tekislagan, jarlarni to'ldirgan, ariq va zovurlar qurgan, oqibatda okrug yer usti tabiiy holatini o'zgartirgan. Madaniyatimizning poydevori bo'lgan tarixiy merosimizni o'rganish – faqat ilmiy jihatdan katta ahamiyat kashf etibgina qolmay, ayni vaqtda buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy hazinasidan bahramand bo'lishda, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda va insonning har tomonlama kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Xorazm vohasi neolit davri

geografik holati, aholisining o'zlashtirilish tarixi A.V.Vinogradov asarlarida o'z aksini topgan [7, C-177, 8, C-78-110]. Xorazm vohasida neolit davri poleogeografiyasi, o'zlashtirilish bosqichlarini arxeologik jihatdan o'rganish yagona emas. E.B.Bijanovning Ustyurt hududida olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijalariga ko'ra Oqtoylik, Aydabol, Chiruk manzilgohlarida neolit davriga oid ashyolar olingan [9, C-18-79]

Qadimiy Xorazm aslida bir necha ming yillar davomida xilma-xil voqealarga boyligi bilan tarix sahifalarini to'ldirgan afsonaviy o'lka hisoblanadi. [10, B-5] Xorazm madaniy jihatdangina emas, tabiiy-geografik joylashuvi jihatdan ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu uning taraqqiyotida ham muhim ro'l o'ynadi. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrda Xorazm va butun O'rta Osiyo iqlimi hozirgiga nisbatan ancha nam bo'lgan. Bunday tabiiy holat odamlarning yashashi uchun ancha qulay bo'lgan. Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, "Xorazm" atamasining ma'nosini juda ko'p olimlar o'zlaricha tushuntirishga intilganlar. Shu bois "Xorazm" so'zi tarixiy manbalarda har xil yozilib kelingan. Qadimgi O'rta Osiyoga oid zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da - "Xvayrizem", grek va lotin tillarida - "Xorasmiyo", qadimgi forschada - "Uvarizmesh", arabchada - "Xvarizm", VII asrga oid Xorazm tangalarida - Xvarzm deb yuritilgan. Lekin olimlarning ko'pchiligida bu so'zning ikkinchi bo'g'inini tarjima qilishda ancha o'xshashlik bor. Ular oxirgi bo'g'inini "Uzem" yoki "zm" ni fors so'zi "zamin" bilan bog'lab "yer" yoki "tuproq" deb tarjima qiladilar. Shuning uchun ba'zi bir olimlar Xorazmni "past tekis yer", ayrimlari "serunum yer" deb ta'riflaydilar. O'tgan asrda yashagan rus sharqshunosi Saval'yev Xorazmning birinchi bo'g'inini forsha "hur", ya'ni "quyosh" so'zi bilan bog'lab "quyoshli yer" deb tarjima qiladi. Mashhur sharqshunos olim, tarixchi S.P.Tolstov fikricha, bunday izohlash haqiqatga ancha yaqin. [8, B-156]

Ilmiy yangilik, tarixiy taxlil, xronologik izchillik, munozara, baxs, umumlashtirish, mantiqiy hulosa.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hodimlari tomonidan Qadimgi Xorazm vohasida uzoq yillar davomida olib borilgan ilmiy arxeologik tadqiqotlar shu o'lkada ajdodlarimizning madaniy izlari eng qadim zamonlarga borib taqalishini tasdiqladi. Qoraqalpog'iston arxeologlari tomonidan Ustyurt hududida olib borilgan arxeologik qidiruvlar natijasida Qadimgi tosh davriga oid makonlar topilgan. Ustyurt tabiatda bor narsalarni borsa kelmas atrofida bu davrga oid yodgorliklar Esen va Qora quduq makonlaridan topilgan. Esen makoni Orolbo'yi hududida joylashib, qadimgi tosh davri mehnat qurollarini ishlash uchun xom ashyo manbai bo'lgan Qoraquduq makoni ovchilarning vaqtincha to'xtaydigan joyi hisoblangan. Qadimgi tosh davrida yashagan odamlar termachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar.

Miloddan avvalgi VI-III ming yilliklarda turmush tarzi ovchilik va baliqchilikka asoslangan madaniyat izlari Xorazm vohasida topilgan Kaltaminor madaniyati yodgorliklari misolida ham o'rganildi. Bu arxeologik madaniyat izlari To'rtko'l tumani janubidagi Kaltaminor kanali yaqinidan topilib, bu xildagi yodgorliklar Oqchadaryo havzasi, yuqori Uzboy, Moxovdaryo, Orolning shimoli-sharqiy hududlarida ham uchraydi. Kaltaminorliklarning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lib, ular ko'pincha baliq ovlaganlar. Bu hududdan topilgan suyaklarning aksariyati baliq suyaklari bo'lgan. Shimoliy-g'arbiy Ustyurtning Jayronquduq va Aydobol qudug'i atroflaridan neolit davri yodgorliklari topildi. Bu makonlardan nukleus, parraklar, teshgich, qirg'ichlar, o'q uchlari, qo'lda yasalgan sapol idishning siniqlari ham topilgan. Kaltaminorliklarning ovchilikda ishlatadigan qurollari asosan chaqmoqtoshdan va suyaklardan ishlangan. Turli-tuman toshdan yasalgan buyumlar, ya'ni pichoqsimon plastinkalar, bigizlar, kamon o'qlari, qirg'ichlar, sanchqi, tosh to'qmoq ham uchraydi. Suyakdan qilingan qurollar oz bo'lib, asosan, kamon o'qi uchlari, pichoq sinig'i, suyak va chig'anoqlardan ishlangan slindr shaklida munchoqlar ko'p topilgan. Bular ayollarning bezaklari to'g'risida ma'lumot beradi. Makonning markaziy qismida kata o'choq izi topilib, S.P.Tolstov fikricha, bu o'choqda olov hamma vaqt yonib turgan, urug' oqsoqoli - o'tog'asi shu o'choq yonida o'tirgan.

Neolit davrida qadimgi Xorazm hududida yashagan aholining asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lishi tabiiy sharoit va geografi muhit bilan chambarchas bog'liq edi. Bu davrda yashagan qabilalar

yuqorida qayd etilganidek daryo o'zanlari, irmoqlari, ko'l va kanal atroflarida vaqtincha chayla qurib, keyin esa boshqa hududlarga ko'chib ketganlar, Shu sababli bu davrda Xorazm hududida loy me'morchiligi qalin devorli manzilgohlar bo'lmagan. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklardan biri neolit davriga oid qabristonlarning topilishi va o'rganilishidir. Shunday qabristonlardan biri Amudaryo quyi oqimining chap qirg'og'ida joylashgan Shumanoy tumani hududida topilgan Kasanjol qabristonlaridir. Bu yerda marhum tanasiga qizil rang sepilib, uni yerdan lahm kavlab, so'ng ana shu go'rga zebu-ziynat va idish tovoqlar bilan birga ko'mishgan. Kaltaminor madaniyatining yil sanasini arxeolog olimlar arxeologik materiallarga tayanib miloddan avvalgi VI ming yillik oxiri va II ming yillik boshlari bilan belgilaganlar.

XULOSA

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi nashrlarida hamda geografiya fani yutuqlari natijalaridan ravshanki, yer osti tebranishlari takrorlanib turishi natijasida Xorazm tekisligi rang-baranglik xususiyati Amudaryo taraqqiyoti munosabati bilan o'ng va so'l hududlarga bo'lingan, ularning geografik holati bir-biridan o'zgarishlari bilan ajralib turadi. Tosh davri ilk bosqichidan odamzod Ustyurt hududini ilk o'zlashtirganlar, so'nggi tosh davrida Xorazmning shimoliy hududi ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgan.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Baratov P, Mamatqulov M, Rafilov A. O'rta Osiyo geografiyasi- Toshkent; O'qituvchi, 2002.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi: Toshkent, O'qituvchi – 1996
3. Xorazm tarixi I-jild. Xorazm: Urganch - 1996
4. Цинзерлинг В.В. Орошение на Амударье М.Наука 1927
5. Итина М.А. Раскопки стоянке Кават 3 в 1958 / МХЭ, вып-6, 1963
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М. 1962
7. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма – М: Наука, 1968. Вып.-8
8. Виноградов А.В. Древние охотники и рыбоковы (Среднеазиатского междуречья// ТХАЭЭ-М: Наука, 1981.XIII)
9. Бижанов Е.Б. Неолитические памятники Юге-Восточного Устюрта // -Древняя средневековая культура юго-восточного Устюрта – Ташкент, Фан, 1978.
10. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat hazinasini. T. "O'zbekiston" – 1999

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000